

MAKTAB MENEJMENTI TALABALARIDA YETAKCHILIK VA BOSHQARUVCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktab menejmenti o'qituvchisi

Ataxanov Izzatbek Ergash o'g'li

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktab menejmenti 1 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh kadrlarda boshqaruvchilik, liderlik va yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirishda axloqiy tamoyillarning ustuvorligiga erishish va yosh rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Lider, boshqaruvchi, kadr, strategik maqsad, islohot, adolatparvar hukmdor, pirovard.

Mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlariga erishishi salohiyatli rahbar kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunda boshqaruv madaniyati, yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish, bu jarayonda xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarga murojaat qilish mavjud boshqaruv talim tizimi oldiga qo'yilgan zamon talabidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvi organlarining rahbar xodimlariga qo'yayotgan talablariga va ularning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshqaruv jarayonida yosh rahbarlarning faoliyati davomida milliy, umuminsoniy va axloqiy qadriyatlarga asoslanish negizida insonlarning erkinligi va huquqlarini hurmat qilish hissi mujassam etgan. Bu esa pirovardida ularning baxtli bo'lishi, hayotda o'z o'rniga ega ekanligini har doim his etib yashashini anglashiga sabab bo'luvchi muhim omillaridan biri sanaladi. Qanday vaziyat

bo'lmasin, boshqaruvda rahbarlarning vakolatlaridan noo'rin foydalangani, tazyiq, qo'pollik, zo'ravonlik, majburlash, o'z vakolati doirasida qo'rqitish, o'z xodimlarini va murojaat bilan kelgan fuqarolarni kamsitish, haqoratlash kabi g'ayriaxloqiy illatlarni o'ziga kasb qilib olgan rahbarlar ham afsuski yo'q emas. Bunday rahbarlarning olib borayotgan faoliyatini esa oqlab bo'lmaydi.

Boshqaruvda rahbar kadrlarning bilimi va axloqiy salohiyati juda muhim o'rin egallaydi. Jamoani adolatli boshqarish odobi rahbarlarning ish faoliyatida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Odob rahbarni aql va axloq egasi bo'lishga, vijdonli, or-nomusli, sof ko'ngilli, bo'lishga da'vat etadi. Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, bir qator sharq adabiyotlarida adolatparvar hukmdorlar to'g'risidagi qarashlar va turfa xil munosabatlarni ko'rishimiz mumkin. Allomalar ularning boshqaruvdagi axloqiy, diniy, umuminsoniy tamoyillariga qanchalik sodiqligi xususida so'z yuritganlar. Masalan: "Iskandarnoma" dostonida Nizomiy Ganjaviy o'zining odil va ma'rifatli shoh, komil inson, adolatparvar hukmdor, ideal jamiyat haqidagi orzularini Iskandar obrazi va hayoliy tasvirlar orqali ifodalagan.

Bugungi kunda O'zbekistondagi yosh kadrlarda boshqaruv va yetakchilik ko'nikmalari va salohiyatini yuksaltirish bo'yicha ko'plab oliy o'quv yurtlarida ya'ni institutlarda "Boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik mahoratini rivojlantirish" va "Maktab menejmenti" kafedralari tashkil qilingan.

Kafedraning asosiy maqsadi tinglovchilarga boshqaruv nazariyasi, uning psixologik asoslari, boshqaruv va rahbarlikning o'ziga xos jihatlari, tashabuskorlik va shaxsiy yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda tizimli tahlil, strategik rejalashtirish, mantiqiy fikrlash, strategik qarorlarni qabul qilish, inson kapitalini boshqarish, moliyaviy savodxonlik bo'yicha chuqur bilim berish hamda mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borishdan iborat.

Talabalarda rahbar mahoratini shakllanishida uning boshqa soha bilimlaridan xabardor bo'lishi, o'z sohasiga doir fundamental bilimga ega bo'lishi umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, uning qobiliyatlari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishi, kishilik olamida sodir bo'layotgan sotsial voqea-hodisalarni

to'g'ri idrok eta bilishi va ularga to'g'ri baho bera bilishi, jamoani yaxlit va har bir xodimni puxta o'rgana 17 bilishi, ularning xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini oldindan aytib bera olish mahorati g'oyat katta ahamiyatga egadir¹.

Shuningdek, kafedrada institutning umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bir yoki bir necha turdosh fanlar bo'yicha o'quv, uslubiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi, davlat hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlarining istiqbolli yosh kadrlarini tayyorlash kurslariga akademik yordam beriladi hamda tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

**Kafedraning maqsadidan kelib chiqib quydagi asosiy vazifalar
belgilangan:**

- Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali va chuqur kasbiy bilimlarga ega bo'lgan raqobatdosh boshqaruv kadrlarni tayyorlash;
- Boshqaruv, ijtimoiy psixologiya va sotsiologiya yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib boorish;
- O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tavsiya etilgan davlat hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlarining yosh istiqbolli kadrlari uchun o'quv kurslarini tashkil etish

“Boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik mahoratini rivojlantirish” va “Maktab menejmenti” kafedrasida “Yoshlarga oid davlat siyosati”, “Yoshlar o'rtasida kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi”, “Yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish”, “Fuqarolik jamiyati asoslari”, “Davlatning iqtisodiy siyosati”, “Moliyaviy savodxonlik”, “Tizimli taxlil”, “Boshqaruv psixologiyasi”, “Boshqaruv sotsiologiyasi”, “Rahbar shaxsi va rahbarlik uslublari”, “Liderlik psixologiyasi”, “Ommaviy muloqot va notiqlik mahorati”, “Zamonaviy boshqaruv asoslari”, “Strategik boshqaruv”, “Inson

¹ —Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanl materiallari —Zamonaviy rahbar: unga qo'yiladigan talablarl 2015 yil, mart.

resurslarini boshqarish” va “Loyiha boshqaruvi asoslari” o‘quv kurslaridan mashg‘ulotlar olib boriladi.

Mutaxassislar tomonidan qayd etilishicha, bugungi kunda mamlakatimizda o‘zining shaxsiy fikri, prinsiplari va sohaga yangicha yondashuvi bo‘lgan yosh rahbar kadrlarni mas‘uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e‘tibor qaratilyapti. Xalqimizning katta qismi, ya’ni 17 million aholisini aynan yoshlar tashkil etishi ham, zamonaviy yetakchilardan har tomonlama bilimli va tashabbuskor, eng avvalo, o‘z ishiga nisbatan fidokorona yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
2. Botirov, BF, Usmonov, J., & Ablyakimova, RI (2021). O'zbekistonda turizm xizmatlarini milliy uslublar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligi asosida tashkil etish. XALQARO ILMIIY-JORIIY TADQIQOT KONFERENTSIYALARI, 53–57.
3. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
4. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanl materiallari —Zamonaviy rahbar: unga qo_yiladigan talablarl 2015 yil, mart.
5. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. Jizzax innovatsion ta'limi , 1 (1). <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
6. Nodira Toshpo'latova, [ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАХЪБАРИНИНГ МУЛОҚОТИ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): [Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)

7.Ж.Мажидов.ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>

8.Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>

9.Mamaraimova, R. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5112>

10.Achilovna, A. N., & ugli, K. S. F. (2022). Information Technologu in the Professional Development of Modem Teachers. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 73–77. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/1054>

11.Kamolova, S. U., Shakarbaeva, S. A., Yuldashev, S. A., & Ochilov, C. Q. (2020). The Essence Of The Content Of Enriching The Scientific Outlook Of Future Teachers. *Essence*, 29(8), 3593-3598.

12.Kamolova, Shirin Usarovna, & O‘Skanov, Mirsaid (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILİYATLARINI SHAKLLANTIRISH JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 676-681.

13.Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5699>

- 14.Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5697>
- 15.Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
- 16.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.